

## Abdulla Avloniyning Pedagogik Qarashlarida Ta'lim Va Tarbiya Uyg'unligi

*Qalandar Rustamov Ravshan o'g'li<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada ma'rifatparvar olim, jadidchilik harakatining yetuk vakili Abdulla Avloniyning Vatan ozodligi, millat farovonligi va yoshlarning kelajagi uchun qayg'urib olib borgan fidokorona ishlari, xalq farzadlarining savod chiqarib, ziyoli insonlar bo'lishi yo'lida mashqatli sa'y-harakatlari, yozgan ta'limiy, tarbiyaviy va axloqiy asarlari, bebaho darslik va qo'llanmalari, hamda ularda ta'lim va tarbiyaning uyg'unligiga katta e'tibor qaratgani haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** jadidchilik harakati, pedagogika, o'qitish metodikasi, texnik vositalar, ta'lim, tarbiya, odob - axloq, xulq, jaholat, "Turkiy guliston yoxud axloq", "Yaxshi xulqlar", "Yomon xulqlar", fazilat, illat.

XX asr boshlarida Turkiston o'lkasidagi jadidchilik harakatining ilg'or namoyondalaridan biri bo'lmish Abdulla Avloniy nafaqat ma'rifatparvar shoir, olim, dramaturg, publitsist, davlat va jamoat arbobi, balki o'zbek milliy uyg'onish davri pedagogikasi va o'zbek matbuoti asoschisi, shuningdek, o'zbek tili va adabiyoti o'qitish metodikasi faniga asos slogan metodist olim edi.

Abdulla Avloniy o'z tarjimai holida shunday yozgan edi: "1891-yildan boshlab faqat qish kunlarida o'qib, qolgan fasllarda mardikor ishladim". Ushbu jumladan uning yoshligi oson kechmaganligi, mashaqqat ila ilm o'rganganligi va bilim olishga yoshligidan tashnaligi ma'lum bo'ladi. Shu bois ham, umrining oxirigacha o'qituvchilik faoliyatini olib borib, maktablar uchun darsliklar yaratdi, pedagogikaning fan sifatida nazariy va amaliy asoslari bo'yicha izlanishlar olib bordi, ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi va inson kamolotidagi o'rni, hamda odob – axloq masalariga bag'ishlangan asarlar yozdi.

Abdulla Avloniy zamonaviy maktablar ochish va yangi usulda o'qitishni boshlab bergan holda, ta'limda birinchilardan bo'lib texnik vositalarni qo'llash orqali savod chiqarish, xor bo'lib ijro etish va o'qish, asarni ma'no-mazmunini anglab, his qilib, ifodali o'qish, she'rlarni kuyga solib o'rganish kabi yangi usullarni ishlab chiqqan.

Pedagogika sohasidagi izlanishlari va faoliyati natijasida o'quvchilarga ham ta'lim, ham tarbiya bera oladigan, milliyligimizni o'zida aks ettirgan darslik va majmualar yaratishga asos bo'lib xizmat qila oladigan qo'llanma sifatida "Turkiy guliston yoxud axloq" asarini yaratdi. Ushbu didaktik asar odob-axloq masalariga ham bag'ishlangan bo'lib, unda asosan bola tarbiyasi, axloqi, bilim olishida o'qituvchining ahamiyati va vazifalari yoritilgan. Asar jadidchilar va ko'plab pedagoglarning taklifiga ko'ra yaratilganligi va o'z davrining ta'lim-tarbiya taraqqiyotida dasurulamal bo'lib xizmat qilgani boisikki marotaba qayta nashr qilingan. Asarda inson hech qachon yomon bo'lib tug'ilmaligi, uning hayotidagi tarbiyaning o'rni, barkamol inson bo'lib yetishishida ta'lim va tarbiyaning ahamiyati beqiyos ekanligi va odob-axloq masalalari bayon etilgan.

Ta'lim va tarbiyani bola ongiga singdirish o'qituvchining vazifasidir. Zero, Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek: "Tarbiya va ta'lim orasida bir oz farq bor bo'lsa ham, ikkisi birdan ayrimaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidir".

Abdulla Avloniy va ma'rifatparvar jadidlarning fidoiy harakatlari millat farzandlarining savodini chiqarish, ilmi, ziyoli insonlar etib tarbiyalash, zamonaviy bilimlardan xabardor mutaxassislar etib tayyorlab, ulardan yetuk olimlar yetishtirish natijasida Vatanni ozod ko'rish, farovon etish kabi

<sup>1</sup> Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti



maqsadlarga qaratilgandir. Bu borada ta`lim-tarbiya shaxsiy masala emas, balki Vatan istiqboli va millat taqdiriga bog`liqligini chuqur anglay olishgan. Shuning uchun ham Avloniy ta`lim va tarbiyaning uyg`unligiga alohida ahamiyat bergan. Tarbiya orqali inson sharafiga, barkamollikka erishadi. Bunda oqituvchi keng va teran fikrlashi, yuksak bilim saviyasiga ega bo`lishi lozim. Abdulla Avloniy tashbexi bilan aytgand, pedagoglar tabiblar kabi bolaning “xasta vujudi”ga yoki jahll markaziga “yaxshi xulq” va “poklik” degan davoni berib, katta qilishlari lozim.

Shuningdek, Avloniyning pedagogik qarashlarida komil insonni voyaga yetkazish uchun aql va ilmga yuksak darajada e`tibor qaratilishiga sabab, ular vositasida insonni ulug`lash g`oyasi asosiy diqqat markazida yotadi. Uning ijtimoiy, axloqiy, ta`limiy qarashlari ifodalangan “Turkiy guliston yoxud axloq” asari 64 bobdan iborat bo`lib, “Yaxshi xulqlar” qismida 31 fazilat, “Yomon xulqlar” qismida 20 illat haqida fikr yuritilgan. “Jaholat ya`ni, ilmsizlik nodonlikdan kelib chiqadi. Alloh insoniyatni hayvon va boshqa jonzotlardan farqli o`laroq aqlli va ilmli qilib yaratdi. Inson ana shu ikki narsa orqali ikki dunyo saodatiga erishadi”.

Vatan ozodligi, xalqning farovon hayoti va millatning istiqboli uchun ma`rifatparvar, ilmli, barkamol insonlarni voyaga yetkazish, ularni yaxshilikka chorlash, yomonlikdan qaytarish ta`lim va tarbiya orqali amalga oshadi. Buni bolalar tarbiyasiga singdirish o`qituvchining zimmasiga yuklanadi. Abdulla Avloniy ta`kidlaganidek: “Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so`ng darajada muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog`liqdur.” Tarbiyasi bo`lmagan bolaning ongiga ta`limni singdirib bo`lmaydi. Ta`lim va tarbiya uyg`unlikda bir birini taqozo etgani bois, ularni ayri-ayri tasavvur qilib bo`lmaydi. Ta`lim olish uchun tarbiya bo`lmog`i lozimdir. Zero, Abdulla Avloniy ta`biri bilan aytganda: “Al-hosil, tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A. Boboxonov, M. Maxsumov, “A. Avloniy pedagogik faoliyati” 1999 yil. 31-36-bet.
2. O. Suvonov, S. Astanova. “Pedagogik mahorat”. -Guliston, 2010.
3. R. Mavlonova, N. Raxmonqulova, N. Voxidova, K. Matnazarova. “Pedagogika” -Toshkent,
4. XodjayeV B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: SANOSTANDART, 2017.
5. Ro`ziyeva D.I., Tolipov O‘. Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: INNOVATSIYA-ZIYO, 2019.
6. XodjayeV B.X., Choriyev A., Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. – T.: IQTISODIYOT DUNYOSI, 2018.
7. Mutalipova M.J., XodjayeV B.X. Qiyosiy pedagogika. Darslik. – T.: TDPU, 2015.
8. Юзликаева Э., Мадьярова С., Янбарисова Э., Морхова И. Теория и практика общей педагогики. Учебник. – Т.: ТГПУ, 2014

